**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik ekotizimi, startaplar, chaebollar, KOSME, SMBA.

**Abstract.** This research paper identifies various areas of state support for entrepreneurship, which is considered a key driver of the economy in both South Korea and Singapore. These areas include administrative, financial, legal, and educational support for entrepreneurship. It is worth noting that in both countries, at the early stages of development, significant priority is given to enterprises engaged in domestic production. This strategic intervention provides the state with the opportunity to act as a "substitute for entrepreneurship" in the absence of strong domestic capital, invest in future-oriented projects, and become an entity focused on improving the innovation ecosystem.

**Key words:** entrepreneurship, entrepreneurship ecosystem, startups, chaebols, KOSME, SMBA.

**Аннотация.** В данной исследовательской работе определены различные направления государственной поддержки предпринимательства, которое рассматривается как ключевой фактор экономического развития как в Южной Корее, так и в Сингапуре. Эти направления включают административную, финансовую, правовую и образовательную поддержку предпринимательства. Стоит отметить, что в обеих странах на ранних этапах развития значительный приоритет отдаётся предприятиям, осуществляющим производство внутри страны. Это стратегическое вмешательство предоставляет государству возможность выступать в качестве «заменителя предпринимательства» в условиях отсутствия сильного внутреннего капитала, инвестировать в перспективные проекты и становиться организацией, ориентированной на улучшение инновационной экосистемы.

**Ключевые слова:** предпринимательство, предпринимательская экосистема, стартапы, чеболи, KOSME, SMBA.

## KIRISH

Ushbu tadqiqot ishida Singapur va Janubiy Koreyada tadbirkorlik subyektlarining o‘sishi hamda iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish maqsadida davlat mexanizmlaridan foydalanishda qo‘llaniladigan aniq strategiyalar, xususan, ularning innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan jihatlari tahlil qilinadi.

Har ikkala davlat ham iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida rivojlanayotgan mamlakatlarga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, sanoatlashtirish jarayonida turli strategik yondashuvlarni qo‘llagan. Xususan, bu jarayonda davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki va nazorat darajasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Masalan, Janubiy Koreyada davlat siyosati tarixan chaebollar deb ataluvchi yirik oilaviy kompaniyalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu korxonalar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ichki bozorga ega bo‘lishiga qaramay, dastlabki bosqichlardan boshlab xalqaro bozorlarda raqobatbardosh faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan.



Boshqa tomondan, Singapurda davlat korxonalari iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Hukumatning iqtisodiyotga ma'lum darajadagi strategik aralashuvi va investitsiyalari bilan tavsiflanadigan ushbu model Singapurda yirik sanoat kapitali yetarli darajada shakllanmagan sharoitda ham tez sur'atlarda sanoatlashish imkonini yaratgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Singapur va Janubiy Koreyada tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishida bir qator mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan, B. Xodiyev, A. Vahobov, N. Jo'rayev hamda Sh. Shodmonov ilmiy izlanishlar olib borgan.

B. Xodiyev fikriga ko'ra, "Janubiy Koreya tajribasi kichik biznesni rivojlantirishda davlatning institutsional qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [1]". A. Vahobovning fikrlariga e'tibor qaratilsa, "innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyotlarda, xususan, Janubiy Koreyada davlat kichik biznesni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishadi [2]".

N. Jo'rayevning qayd etishicha, "Singapurda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik hamda ochiq iqtisodiy siyosat tadbirkorlik rivojining asosiy omillaridan biridir [3]". Sh. Shodmonovning ta'kidlashicha esa, "Singapurda yaratilgan erkin va shaffof biznes muhiti kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlaydi [4]".

Shuningdek, Janubiy Koreya va Singapurda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishida ko'plab xorijiy olimlar ham ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, W. G. Huff fikriga ko'ra, "rivojlanayotgan davlat konsepsiyasi Singapur hamda Janubiy Koreyaning iqtisodiy yo'nalishlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [5]".

Long Pia hamda Sangin Parkning ta'kidlashicha, ushbu davlatlarda hukumatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tezkor sanoatlashtirish va iqtisodiy transformatsiyaga erishishda muhim omil hisoblanadi. Har ikkala davlat dastlab, ayniqsa iqtisodiy o'sishning ilk bosqichlarida, davlat tomonidan boshqariladigan rivojlanish modellarini qo'llagan. Biroq, Janubiy Koreyada chaebollarga tayangan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmi Singapur yondashuvidan farq qiladi, chunki Singapurda davlat korxonalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [6].

Singapurning iqtisodiy siyosati yo'nalishida Temasek Holdings va unga aloqador hukumatga bog'liq kompaniyalar orqali davlat tadbirkorligiga tizimli ravishda e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ushbu subyektlar davlatning tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi muhim mexanizmlar sifatida xizmat qiladi, aksiyadorlar qiymatini oshirish bilan birga milliy rivojlanish maqsadlariga ham xizmat qiladi [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida Singapur va Janubiy Koreyada davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish maqsadida qiyosiy-amaliy tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi.

Mazkur yondashuv asosida mavjud empirik ma'lumotlar hamda ilmiy tahlillarga tayangan holda har bir davlatda barqaror biznes traektoriyasini shakllantirishga xizmat qilgan sanoat siyosati, moliyaviy rag'batlantirish va tartibga solish yo'nalishlari aniqlanadi.

Shuningdek, ushbu tahlil turli mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan strategiyalarning samaradorligi va uzoq muddatli natijalarini, xususan, ularning global iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvi hamda mahalliy innovatsiyalarni rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirishni rag'batlantirishdagi ahamiyatini baholash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy jihatdan o'sish va innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Global miqyosda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirish maqsadida samarali davlat siyosati va dasturlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [8].

Jahon bankining "Doing Business" reytingi bo'yicha 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, "Arslon shahri" nomi bilan mashhur Singapur 86,2 ball bilan 2-o'rinni egallagan bo'lib, u Yangi Zelandiyadan keyin joylashgan. Mazkur reytingda Singapur tadbirkorlik faoliyatini yuritish, xususan, shartnomalar tuzish jarayonining soddaligi, vaqt va xarajatlar samaradorligi hamda huquqiy tartibga solish darajasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi [9].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsuloti (YalM) o'rtacha 574 milliard AQSh dollarini tashkil etuvchi Singapurda kichik va o'rta biznes subyektlarining hissasi sezilarli darajada yuqori. Xususan, ular mamlakat YalMining qariyb 47 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, barcha korxonalarining 99 foizi hamda umumiy bandlikning 70 foizi aynan kichik va o'rta biznes hissasiga to'g'ri keladi.



Bugungi kunda Singapur tadbirkorlik faoliyati rivojlangan yetakchi markazlardan biriga aylangan bo'lib, bunda kuchli iqtisodiy asoslar, hukumatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati hamda samarali startap ekotizimi muhim rol o'ynaydi. Mazkur omillar innovatsiyalar va biznes rivojini rag'batlantiruvchi qulay muhitni shakllantirgan.

Xususan, Singapurda tadbirkorlar uchun keng ko'lamlı resurslar va samarali qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lib, bu startap ekotizimining izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda startaplar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma, jumladan, kovorking markazlari, inkubatorlar va akseleratorlar keng rivojlangan. Ushbu muhit tadbirkorlarga hamfikir shaxslar va potensial investorlar bilan hamkorlik o'rnatish, tajriba almashish hamda biznes tarmoqlarini kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Singapurda yil davomida turli startap tadbirlari va konferensiyalar tashkil etilib, bilim va innovatsion g'oyalar almashinuvini yanada faollashtiradi. Shu bilan birga, tadbirkorlik rivojining muhim omillaridan biri sifatida hukumat tomonidan taqdim etilayotgan tizimli va keng qamrovli qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Startaplar uchun qulay tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish maqsadida Singapur hukumati tomonidan izchil va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu asosda Singapurning zamonaviy tadbirkorlik ekotizimi shakllanishini muayyan tarixiy bosqichlarga ajratib tahlil qilish mumkin (1-jadval).

### 1-jadval. Singapurda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bosqichlari va ularning asosiy yo'nalishlari

Davr	Asosiy yo'nalish
1819–1965	Savdo posti bosqichidan sanoat strategiyasiga o'tish
1965–1980	Mustaqillik davri, EDB (Economic Development Board) orqali o'sish
1980–2000	Kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatiga oid davlat siyosati
2000–hozir	Innovatsiya va tadbirkorlik ekotizimining yuksalishi

1819-yilda Britaniya Sharqiy Hind kompaniyasi tomonidan Singapur hududida strategik savdo posti tashkil etildi. Biroq, Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarida ma'lum pasayish kuzatildi. Shu sababli 1959–1965-yillarda "importni almashtirish sanoati" strategiyasi joriy etilib, ishlab chiqarish jarayonlari jadallasha boshladi [10].

Singapur 1965-yilda mustaqillikka erishgach, hukumat chet el investitsiyalarini jalb etishga alohida e'tibor qaratdi hamda Economic Development Board (EDB) orqali iqtisodiy siyosatni markazlashtirishga erishildi. Mazkur strategiya mamlakatni sanoat ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishga xizmat qildi va iqtisodiy taraqqiyotning jadal o'sishiga turtki berdi [11].

1980–1990-yillarda Singapur hukumati yangi bizneslarni rag'batlantirish maqsadida faol davlat siyosatini amalga oshirdi. Bu jarayonda davlat agentliklari va mikroiqtisodiy dasturlar muhim ahamiyat kasb etdi [12].

2000–2010-yillarda milliy innovatsiya va tadbirkorlik ekotizimi shakllanish bosqichiga o'tdi. Ushbu davrda Singapurda RIE (Research, Innovation & Enterprise) strategiyalari tadbirkorlik faoliyati rivojida ilm-fan va texnologiyani asosiy omil sifatida belgiladi. Jumladan, 2005-yilda National Research Foundation (NRF) tomonidan Research, Innovation and Enterprise Council (RIEC) tashkil etildi. Ushbu tuzilma korxonalar va universitetlar o'rtasida bozorga yo'naltirilgan innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim siyosiy institut sifatida faoliyat yuritdi [13].

Ilmiy tadqiqotlar, jumladan, "The Development of Singapore's Innovation and Entrepreneurship Ecosystem" natijalariga ko'ra, so'nggi 20–25 yil davomida Singapur innovatsion rivojlanishida quyidagi bosqichlar kuzatiladi:

- dastlab ko'p millatli kompaniyalarga tayangan holda iqtisodiy o'sish ta'minlandi;
- keyinchalik davlat siyosati innovatsiya, texnologik tadbirkorlik hamda R&D (tadqiqot va ishlanmalar) rivojiga yo'naltirildi;
- so'nggi yillarda medtech, aqlli shahar infratuzilmasi, fintech va boshqa innovatsion klasterlar jadal rivojlandi.

Shuningdek, mazkur tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hatto COVID-19 pandemiyasi davrida ham startap ekotizimi barqaror rivojlanishda davom etgan [14].

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati yuqori darajada rivojlangan yana bir davlat — Janubiy Koreya hisoblanadi. Ushbu mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, Jahon Bankining 2019-yilgi "Doing Business" reytingida 84 ball bilan 5-o'rinni egallagan [15].

Shuningdek, Janubiy Koreya 190 ta mamlakat orasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash qulayligi, shartnomalar tuzish hamda elektr ta'minoti yo'nalishlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan.



2020-yil holatiga ko'ra, Janubiy Koreyada jami 7 295 393 ta kompaniya faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 99,9 foizini kichik va o'rta biznes subyektlari tashkil etadi (7 286 023 ta). Mamlakatda jami band aholining soni 21 580 496 nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 17 541 182 nafari kichik va o'rta biznes sektorida faoliyat yuritadi. Bu esa umumiy bandlikning qariyb 81,3 foiziga tengdir.

Daromad ko'rsatkichlariga ko'ra, barcha kompaniyalarning umumiy daromadi 56 599,655 trillion Koreya vonini tashkil etgan bo'lib, shundan 26 733,019 trillion von kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu umumiy daromadning taxminan 47,2 foizini tashkil etadi [16].

Janubiy Koreyada kichik va o'rta tadbirkorlik hamda startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida alohida vazirlik faoliyat yuritadi. Xususan, Ministry of SMEs and Startups (MSS) 2017-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari tadbirkorlik va startaplarni rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda kichik biznes subyektlarining global bozorlarga chiqishini rag'batlantirishdan iborat [17].

Shuningdek, Janubiy Koreyada Korea SMEs and Startups Agency (KOSME) faoliyat yuritadi. Mazkur agentlik notijorat va hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifasi kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hamda dasturlarini amalga oshirishdan iborat.

Xususan, 2024-yilning ikkinchi yarmida KOSME tomonidan kichik va o'rta biznes subyektlariga jami 4,7 trillion von (taxminan 3 milliard AQSh dollari) miqdorida to'g'ridan-to'g'ri kredit mablag'lari ajratilgan. Agentlik MSS bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritib, kichik tadbirkorlik subyektlarining xalqaro miqyosda rivojlanishiga amaliy ko'maklashadi [18].

Umuman olganda, Janubiy Koreyada tadbirkorlikning rivojlanish jarayonini shartli ravishda to'rtta asosiy bosqichga ajratish mumkin (2-jadval):

2-jadval. Janubiy Koreyada tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bosqichlari va ularning asosiy xususiyatlari

№	Bosqichlar	Yillar	O'zgarishlar
1	Davlat boshchiligidagi industrializatsiya	1960–1980-yillar	– Davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi – “Chaebol”larning shakllanishi (masalan, Samsung, Hyundai va boshqalar)
2	Bozor iqtisodiyotiga o'tish va kichik hamda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash	1980–1997-yillar	– Monopoliyaga qarshi siyosatning kuchaytirilishi– Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish– SMBA tashkil etilishi
3	Innovatsiya va startap siyosati (Osiyo moliyaviy inqirozidan keyin)	1997-yildan keyin	– Venture kapitalning rivojlanishi– Startaplarni qo'llab-quvvatlash– SBIR modeliga o'xshash dasturlar joriy etilishi
4	Global startap ekotizimining shakllanishi	2010-yildan hozirgacha	– Startaplar va texnologiyalar rivoji– Global investitsiyalar oqimining ortishi– Maxsus vazirlik tashkil etilishi [19]

Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi yagona siyosat asosida emas, balki muayyan bosqichlarga xos yondashuvlar asosida shakllangan. Ya'ni, ushbu jarayon iqtisodiy sharoit va rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib borgan.

Xususan, tadbirkorlik rivojlanishining dastlabki bosqichida davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi kuzatilgan bo'lib, aynan davlat ko'magida “chaebollar” — davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan yirik oilaviy korporatsiyalar shakllantirilgan [20].

Keyingi bosqichda, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash davrida monopoliyaga qarshi siyosat kuchaytirilib, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, 1996-yilda davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida Small and Medium Business Administration (SMBA) tashkil etilgan [21].

1997-yildan boshlab tadbirkorlik faoliyati rivojining yangi bosqichi boshlandi. Ushbu davrda venchur kapitalni rivojlantirish hamda startaplarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

2010-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan bosqichda esa startaplar va yuqori texnologiyalarni yanada rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur bosqichda mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi institutsional jihatdan mustahkamlanib, Ministry of SMEs and Startups kabi maxsus vazirlik tashkil etildi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Singapur va Janubiy Koreyada tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi izchil va bosqichma-bosqich shakllangan bo'lib, har bir rivojlanish davrida iqtisodiy sharoitlar va ustuvor yo'nalishlarga mos ravishda takomillashtirib borilgan. Har ikkala davlat tajribasi davlatning faol va strategik ishtiroki, ayniqsa rivojlanishning dastlabki bosqichlarida, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hamda milliy biznesni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Janubiy Koreyada dastlab yirik korporatsiyalar — chaebollarni qo'llab-quvvatlash orqali sanoatlashuv jarayoni jadallashtirilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda kichik va o'rta biznes hamda startaplarni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilgan. Singapurda esa davlatning institutsional yondashuvi, xususan, davlat korxonalari va samarali boshqaruv mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb etish, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda qulay biznes muhitini yaratish asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, har ikkala mamlakatda ham innovatsion ekotizimni shakllantirish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, startaplarni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishilgan.

Mazkur tajribalarni umumlashtirgan holda, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratiladigan investitsiyalarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, startap ekotizimini rivojlantirish uchun inkubatorlar, akseleratorlar va venchur moliyalashtirish institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishini rag'batlantiruvchi eksportga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xodiyev, B. Milliy iqtisodiyot rivojlanishi. – Toshkent, 2019.
2. Vahobov, A. Iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiya. – Toshkent, 2020.
3. Jo'rayev, N. Jahon iqtisodiyoti. – Toshkent, 2018.
4. Shodmonov, Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2017.
5. Huff, W. G. (1995). The developmental state, government, and Singapore's economic development since 1960. *World Development*, 23(8), 1421–1438. [https://doi.org/10.1016/0305-750X\(95\)00043-C](https://doi.org/10.1016/0305-750X(95)00043-C)
6. Piao, L., & Park, S. (2025). The limitations of South Korea's government-led, chaebol-centered development strategy. *Journal of Asian Governance*, 2(1). <https://doi.org/10.63851/001c.133773>
7. Thabane, T. (2024). Rebooting state-owned companies in South Africa: Exploring the viability of Singapore's state holding company (Temasek) model of ownership and control. *Potchefstroom Electronic Law Journal*, 27. <https://doi.org/10.17159/1727-3781/2024/v27i0a17022>
8. Ratinho, T., Amezcuca, A., Honig, B., & Zeng, Z. (2020). Supporting entrepreneurs: A systematic review of literature and an agenda for research. *Technological Forecasting and Social Change*, 154, 119956. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2020.119956>
9. World Bank. (2020). Doing Business 2020: Singapore. <https://www.worldbank.org/content/dam/doingBusiness/country/s/singapore/SGP.pdf>
10. Nugprachaya, O., & Jaiborisudhi, W. (2024). History of Singapore's economic development: Transforming from entrepôt trade to import substitution industrialization. *UTCC Journal of Humanities and Social Sciences*, 44(1), 95–116.
11. Edwards, C. (2003). Singapore: Reflections and implications of another smart state. *Queensland Review*, 10(1), 53–69. <https://doi.org/10.1017/S132181660000252X>
12. Goh, M., & Chew, I. (1996). Public policy and entrepreneurship development – Singapore style. *Journal of Enterprising Culture*, 4(1), 79–93. <https://doi.org/10.1142/S021849589600006X>
13. Chan, L. (2013). Universities as engines of economic growth: Entrepreneurship in academia – A Singapore experience. In K. Hishida (Ed.), *Fulfilling the Promise of Technology Transfer*. Springer, Tokyo. [https://doi.org/10.1007/978-4-431-54306-0\\_9](https://doi.org/10.1007/978-4-431-54306-0_9)
14. Wong, P. K. (2022). The development of Singapore's innovation and entrepreneurship ecosystem. In J. S. Engel (Ed.), *Clusters of Innovation in the Age of Disruption* (pp. 206–244). Edward Elgar Publishing.
15. World Bank. (2019). Doing Business Rankings. <https://archive.doingbusiness.org/en/rankings>
16. OECD. (2024). Financing SMEs and Entrepreneurs 2024. [https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2024\\_fa521246-en](https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2024_fa521246-en)
17. Ministry of SMEs and Startups (MSS). <https://eng.mss.go.kr>
18. Korea SMEs and Startups Agency (KOSME). [https://en.wikipedia.org/wiki/Korean\\_SMEs\\_and\\_Startups\\_Agency](https://en.wikipedia.org/wiki/Korean_SMEs_and_Startups_Agency)
19. *Excellencia International Multi-disciplinary Journal of Education*. (2024). <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/3246/3674/6381>
20. Chaebol – Wikipedia. <https://en.wikipedia.org/wiki/Chaebol>
21. KOISRA. (2020). The Small and Medium Business Administration (SMBA). <https://www.koisra.co.kr/news/the-small-and-medium-business-administration-smba>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>